

TA'LIMDA YANGI YONDASHUVLAR, SUN'IY INTELLEKT VA AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Tog'ayeva Gulruxsor Atamurodovna

Jizzax viloyati Baxmal tumani 49-umumtalim maktab o'qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqola: Hozirgi kunda ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, berilayotgan yangi imkoniyatlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar va pedagogiklarimizga berilayotgan imtiyozlar. Shu bilan birgalikda kunning dolzarb mavzulariga aylangan va keng muhokamalarga sabab bo'layotgan “Sun'iy intellekt va AKT vositalari”ning ta'lim sohasiga foydali taraflari haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *AKT vositalari, Sun'iy intellekt, Ta'lim darajasi rivoji, Konsepsiya*

Kirish

O'zbekistonda ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu shunchaki balandparvoz gaplar emas, balki aniq raqamlar, qonuniy imtiyozlar va infratuzilmadagi o'zgarishlarda namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot 2 barobarga o'sgani, ta'lim va ilm-fan sohasiga ajratilayotgan mablag'lar 6 barobar oshgani ta'limga strategik sohalaridan biri sifatida qaralayotganini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va jamoatchilik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mehnatkashlar, ayniqsa, ustoz va murabbiylarning mehnati munosib qadrlanayotgan jamiyatda barqaror taraqqiyot hamda ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va Jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamqda. Globallashuv Jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak - bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki Jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqola mavzusini yoritishda Sh.Mirziyoyev asarlari, farmonlari, mavzuga oid ma'lumotlar va turli internet manbaalaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA

Oʻtgan davr mobaynida mamlakatimizda oʻsib borayotgan avlodni sogʻlom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, taʼlim-tarbiya jarayoniga samarali taʼlim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha taʼlimning samarali tizimini tashkil etish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha taʼlim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha taʼlim muassasalari sonini yanada oshirish va ular koʻrsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor boʻldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha taʼlim bilan qamrovini taʼminlash, maktabgacha taʼlim muassasalarini zamonaviy oʻquv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan toʻldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini koʻrsatmoqda.



Bugun Yangi Oʻzbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan taʼlim tizimidagi oʻzgarishlar haqida toʻlqinlanib soʻzlamaslikning iloji yoʻq. Mamlakatimizda soʻnggi yillarda taʼlim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish boʻyicha amaliy ishlar hal

qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli boʻlib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, koʻplab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tugʻiladi. Shunday ekan, Yangi Oʻzbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, oʻylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qoʻllab-quvvatlaydi”.

Taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy taʼlim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasida oliy taʼlimni tizimli isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, oliy taʼlimni modernizatsiya qilish, ilgʻor taʼlim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Sunʼiy intellekt — bu kompyuter yoki robotlarning inson kabi mantiqiy fikrlashi, oʻrganishi, xulosalar chiqarishi va qaror qabul qilishi imkonini beruvchi texnologiyadir.

AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) — bu ma’lumotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun ishlatiladigan barcha texnik va dasturiy vositalar majmuasidir.

Ta’limda sun’iy intellektdan ta’limni yaxshilash, o’qituvchilarga yordam berish va yanada samarali individual ta’limni qo’llab-quvvatlash uchun foydalanish



imkoniyati hayratlanarli, lekin bir oz qo’rqinchlidir. Ta’limda sun’iy intellekt haqida aqlli suhbatlashish uchun, avvalo, kompyuterlar va robotlarning bolalarimizni o’qitishi, o’qituvchilarning o’rnini bosishi va inson elementini tubdan insoniy faoliyatdan olib tashlash haqidagi xayoliy ilmiy-fantastik ssenariylarni chetlab o’tish kerak.

Ta’limda sun’iy intellektning afzalliklari bo’yicha yetakchi yozuvchilardan biri Metyu Linch (“Ta’limda sun’iy intellektning kelajagiga bo’lgan qarashlarim”) ehtimoliy tuzoqlarni afzalliklari bilan birga ehtiyotkorlik bilan o’rganib chiqadi va “Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish ba’zi jihatdan qimmatlidir, ammo biz uning rivojlanishini va bizning dunyomizdagi umumiy rolini nazorat qilishda o’ta hushyor bo’lishimiz kerak” deb yozadi.

Axloqiy mulohazalar har qanday vaziyatda sun’iy intellektdan foydalanishda bo’lgani kabi chuqurdir. Sun’iy intellektda “axloqiy kompas” yo’q. Shunday qilib, bir qarashda, TowardsDataScience ma’lumotlariga ko’ra, sun’iy intellektning axloqi haqidagi maqolada sun’iy intellektni dasturlash "o’z ishlab chiqaruvchisi kabi axloqiy" deb ta’riflanadi, bu esa oldinga siljish uchun ikkita muhim tavsiyalarni belgilaydi.

Ta’limda sun’iy intellektdan ta’limni yaxshilash, o’qituvchilarga yordam berish va yanada samarali individual ta’limni qo’llab-quvvatlash uchun foydalanish imkoniyati hayratlanarli, lekin bir oz qo’rqinchlidir. Ta’limda sun’iy intellekt haqida aqlli suhbatlashish uchun, avvalo, kompyuterlar va robotlarning bolalarimizni o’qitishi, o’qituvchilarning o’rnini bosishi va inson elementini tubdan insoniy faoliyatdan olib tashlash haqidagi xayoliy ilmiy-fantastik ssenariylarni chetlab o’tish kerak.

Ta’limda sun’iy intellektning afzalliklari bo’yicha yetakchi yozuvchilardan biri Metyu Linch (“Ta’limda sun’iy intellektning kelajagiga bo’lgan qarashlarim”) ehtimoliy tuzoqlarni afzalliklari bilan birga ehtiyotkorlik bilan o’rganib chiqadi va “Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish ba’zi jihatdan qimmatlidir, ammo biz uning rivojlanishini va bizning dunyomizdagi umumiy rolini nazorat qilishda o’ta hushyor bo’lishimiz kerak” deb yozadi.

Axloqiy mulohazalar har qanday vaziyatda sun’iy intellektdan foydalanishda bo’lgani kabi chuqurdir. Sun’iy intellektda “axloqiy kompas” yo’q. Shunday qilib, bir qarashda, TowardsDataScience ma’lumotlariga ko’ra, sun’iy intellektning axloqi haqidagi maqolada sun’iy intellektni dasturlash "o’z ishlab chiqaruvchisi kabi axloqiy" deb ta’riflanadi, bu esa oldinga siljish uchun ikkita muhim tavsiyalarni belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ta'lim sohasi shunchaki islohotlarni boshidan kechirmayapti, balki u tubdan yangilanmoqda. Davlatimiz tomonidan berilayotgan keng imkoniyatlar (maoshlarning oshishi, huquqiy himoya, zamonaviy maktablar) o'qituvchini ijtimoiy jihatdan yuksaltirgan bo'lsa, Sun'iy intellekt va AKT vositalari uning professional mahoratini yangi bosqichga olib chiqdi.

Ona tili va adabiyoti fani — millat ma'naviyatining asosi. Shuning uchun bu fanni o'qitishda texnologiyadan foydalanish, o'quvchini nafaqat savodli yozishga, balki axborot oqimi ichida tahliliy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish bugungi kunning bosh talabidir.

Adabiyotlar:

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Donuni. - T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.uz>
4. 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>